

“TASDIQLAYMAN”

Atrof-muhit va tabiatni muhofaza
qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot
instituti direktori v.v.b.

S. Buriyev

2022-yil “15” iyul



TEXNIK HUJJAT VA TOPSHIRIQ

(Respublika tovar xomashyo birjasining maxsus axborot
portaliga e'lon joylashtirish to'g'risida)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-oktabrdagi “Ekologiya va atrof-muhitni muxofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3956-sон Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-yanvardagi 29-sон qarori bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muxofaza qilish davlat qo'mitasi to'g'risida”gi Nizom va Davlat ekologiya qo'mitasi raisining 2021-yil 19-maydagi 200-sон buyrug'iga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muxofaza qilish davlat qo'mitasining “Ekologiya xabarnomasi – Экологический вестник” axborot-tahliliy va ilmiy-amaliy jurnalini chop etish bo'yicha e'lon matnini Respublika tovar xomashyo birjasining maxsus axborot portaliga joylashtirish zarur.

**Respublika tovar xom-ashyo birjasining maxsus axborot
portaliga joylashtiriladigan tanlash shartlari
va hujjatlari bo'yicha e'lon matni**

Tanlashga qo'yilayotgan xizmatlar turi:

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muxofaza qilish davlat qo'mitasining “Ekologiya xabarnomasi – Экологический вестник” axborot-tahliliy va ilmiy-amaliy jurnalini chop etish.

Tanlash ishtirokchilariga qo'yiladigan talablar:

1. Jurnal chop etishni “Buyurtmachi” tomonidan taqdim qilingan talablar asosida sifatli va tez bajarish;
2. Jurnalni sifatli chop etish, uni yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirish sohasida kamida 5 yillik tajriba hamda malakali xodimlar bazasiga ega bo'lish;
3. Jurnalni chop etishdan oldin tijoriy narx hisobini va 1 nusxa jurnalni taqdim etish hamda 2 chorak soni 200 nusxadan bo'lgan miqdorda nashr etish;

4. Broshyura formati A-4 rangli, sahifa 70, ichki liner 4+4, Muqova formati A3 4+0 laminatsiya porloq ((Брошюра формат А-4 цветной, стр 70 внутренний вкладыш 4+4 Обложка формат А3 4+0 ламинация глянцевая)).

5. G‘olib chiqqan tashkilot (“Bajaruvchi”) tomonidan jurnalni chop etish bo‘yicha buyurtmalar unga taqdim etilgan kundan boshlab yigirma kun muddat davomida to‘liq tayyorlab berish va ish yakuni bo‘yicha bajarilgan ishlar yuzasidan “Buyurtmachi”ga hisob-faktura topshirish;

6. Tanlash ishtirokchilari tomonidan xarid qilish tartib-taomillarini amalgamoshirish jarayonida korruption holatlarga yo‘l qo‘ymaslik xususida ariza taqdim etish;

7. Tanlashda g‘olib chiqqan tashkilot (korxona) bilan Ilmiy-tadqiqot instituti o‘rtasida rasmiylashtirilgan shartnomada ko‘zda tutilgan ishlar belgilangan muddatda bajarilmasa, har bir kechikkan kun uchun bajarilmagan qismining 0,4 foiz miqdorida penya undirish amaliyoti mavjudligi inobatga olinsin;

8. Talabgorlar tomonidan taqdim etiladigan 5 ta takliflar quyidagi talablarga asosan elektron tartibda baholanadi. Xususan, ariza, kafillik xati, tanlash ishtirokchisi haqida umumiylar ma’lumot, uning moliyaviy holati haqida ma’lumot, taklif qilinayotgan xizmatning texnik tavsifiga qiyosiy jadval.

Ko‘rsatiladigan xizmatlarning umumiylar tavsifi:

| T/r | Tovar nomi | Soni | Nusxa (dona) | Narxi (so‘m) | Ko‘rsatiladigan xizmatning umumiylar narxi (so‘m) |
|-----|--|----------|-----------------|-----------------|---|
| 1 | “Ekologiya xabarnomasi – Экологический вестник” axborot-tahliliy va ilmiy-amaliy jurnali | 1-chorak | 200 | 65 000 | 13 000 000 |
| 1 | “Ekologiya xabarnomasi – Экологический вестник” axborot-tahliliy va ilmiy-amaliy jurnali | 2-chorak | 200 | 65 000 | 13 000 000 |
| | JAMI | | | | 26 000 000 |

Buyurtmachi nomi: O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi huzuridagi Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti.

Buyurtmachi mansabdor shaxsining lavozimi, F.I.Sh., manzil va telefon raqami: direktor S.Buriyev Chilonzor tumani, Bunyodkor shoh ko‘chasi, 7a-uy. STIR: 305 028 989

Tanlov taklifini rasmiylashtirish shakli: elektron talablar asosida.

Buyurtmani bajarish muddati: loyihalarni tayyorlash bo‘yicha buyurtma berilgan kundan boshlab yigirma kun.

Tanlov o'tkazish manzili: Chilonzor tumani, Bunyodkor shoh ko'chasi,
7a-uy.

Takliflarni topshirish manzili: <https://etender.uzex.uz/> - O'zbekiston
Respublikasi Tovar-Xom ashyo birjasi.

Ma'lumot uchun telefon: (71) 277-89-22.

Takliflarni baholashning asosiy mezonlari:

- Tannarx, muddat, ko'rsatiladigan xizmatlar turi, buyurtmachi tomonidan taqdim qilingan e'lon shartlariga to'liq ravishda muvofiq bajarish muddati.
- Komissiya tomonidan xizmat ko'rsatish sifatli va o'z vaqtida bajarish bilan bog'liq boshqa holatlar ham mezon sifatida baholanadi;
- Takliflar komissiya tomonidan elektron talablarga asosan baholanishi natijasida tanlash g'olibи aniqlanadi.

**Tahririyat bo'limi
bosh mutaxassisи**

U.Mamajonov